

O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

G.A. Khojayeva

UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

E-mail: magulyora1993@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola o‘quvchilar o‘rtasida muzokaralar, yangiliklar, fikr-mulohazalar olib borish, savollar berish va javob berish bilan bog‘liq muhokamalar o‘rnatishga qaratilgan. Bunday muhokamalar o‘quvchilarning ma’naviy jihatdan rivojlanishiga va o‘z fikrlarini boshqalarga ifoda qilish qobiliyatiga ega bo‘lishiga yordam beradi. Boshqalar asarlarini o‘qishga o‘rgatishning asosiy vositasi sifatida o‘quvchilarga mustaqil o‘qishni o‘rgatishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil o‘qish, dastur, o‘quvchilar, o‘qituvchi, adabiy materiallar, hadislar, topshiriqlar, o‘quv jarayoni, xarakterlar, o‘quv mashg‘ulotlari, mavzu, savollar, vazifalar, fikrlash qobiliyati.

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga mustaqil o‘qish mashg‘ulotlarida hadislarining o‘qitilishi nuqtai nazaridan yondashilsa, yanada ko‘proq natijaga erishish mumkin. Biror adibning adabiyot darslarida o‘rganilgan asarlaridan boshqa asarlarini o‘qishga tavsiya qilish bolalarni mustaqil o‘qishga o‘rgatishdagi asosiy vosita hisoblanadi mustaqil o‘qish sinfda o‘tkaziladi. Lekin bunda berilgan adabiy materialni har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil tarzda o‘rganadi. U haqda o‘zi biror xulosaga keladi. Ayrim sinflarning darsliklarida "Mustaqil o‘qish uchun" rukni ostida asarlar berilgan bo‘ladi.

Mustaqil o‘qishga dasturda alohida soat ham ajratilgan bo‘ladi. Buning o‘ziga xosligi shundaki, asosiy ishni bolalarning o‘zlari qilishadi. Ya’ni ular matnni o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz mustaqil o‘qishni o‘rganadilar. Odatda, bu xil o‘qishlar boshlang‘ich sinf va umumiy o‘rta ta’limning 5-6-sinflarida amalga oshiriladi. O‘qituvchi dasturda mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan asarlarning o‘quvchilar tomonidan qanday o‘qilayotganini reja asosida nazorat qilmog‘i lozim.

Hadislarni birgina dasturda ko‘zda tutilgan vaqt davomida sinfda o‘rganish o‘quvchilar ma’naviyatini takomillashtirish uchun yetarli emasligini hisobga olib, o‘qituvchi 5-6-7-8-9-sinflarda yiliga bir marta hadislar asosida mustaqil o‘qish mashg‘ulotlarini tashkil qilmog‘i kerak. Adabiyot o‘qituvchisining o‘z rejasiga bunday o‘zgartirish kiritishi mumkinligi amaldagi dasturda uqtirilgan: “Agar adabiyot

o'qituvchisi zarur deb hisoblasa, mustaqil o'qish uchun berilgan adabiy materiallarni dasturdagi istalgan asosiy material o'rniga o'tishi ham mumkin"

Mustaqil o'qish uchun 5-sinfda 4 soat vaqt ajratilgan bo'lib, ulardan 1 soati hadislardan namunalar o'qish uchun tavsiya qilingan. 6-sinfda mustaqil o'qishga 2 soat ajratilgan, 7-sinf dasturida mustaqil o'qish uchun soat ajratilmagan. Ammo darslikda o'n bitta adibning asarlari mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan; 8-9-sinflarning dastur va darsliklarida mustaqil o'qish uchun vaqt ajratilmagan hamda asarlar tavsiya qilinmagan.

6-9-sinflarda o'tiladigan mustaqil o'qish darslari maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan amalga oshiriladi. Hadislar asosida tashkil qilinadigan mustaqil o'qishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, uning eng asosiysi, o'quvchilarning o'quv vazifalarini o'qituvchining doimiy ko'rsatmasi va rahbarligisiz bajarib borishidir.

Ammo o'qituvchi o'quv topshiriqlari natijasini kuzatishi, uning berayotgan foydasini tahlil qilib borishi zarur. Mustaqil o'qish sifatida berilgan topshiriq dars jarayonidagi topshiriqdan shunisi bilan farq qiladiki, o'quvchi topshiriqlarni o'qituvchining va sinfdosh do'stlarining yordamisiz bajaradi. Bunda o'quvchi turli kamchiliklarga yo'l qo'yishi ham mumkin.

Shunday bo'lsa-da, o'quvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo'lgan ishtiyoqi so'ndirilmassligi lozim. O'quvchilarning mustaqil bajargan topshiriqlari ketma-ket salbiy baholansa yoki bajargan ishi e'tiborsiz qoldirilsa, uning o'z kuchiga, bilimiga bo'lgan ishonchi yo'qolib, topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Shuning uchun mustaqil o'qish mashg'ulotlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar aniq va izlanishga undaydigan bo'lishi kerak. Shunda o'quvchi bir yoki bir necha hadislarni o'rganishdan kelib chiqadigan ta'limiy maqsadga osonroq yetib boradi.

Mustaqil o'qishning katta qismi sinfda amalga oshiriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qituvchilar mustaqil o'qishni tashkil etishga u qadar e'tibor berishmaydi. Holbuki, adabiyot o'qituvchisi mustaqil o'qish uchun matn tavsiya qilishda o'quvchilarning qiziqishini, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik muammolarni hisobga olishi, ularni hal qilish yo'llarini belgilab qo'yishi, mavzuning sodda yoki murakkabligiga qarab vaqt ajratishi lozim. Bundan tashqari, o'quvchilar mustaqil o'qish uchun berilgan topshiriqni ko'rib chiqishga ulgurishi, topshiriqning murakkab tomonlarini bajarish yo'llarini o'qituvchidan so'rab, tushunarsiz so'zlarni aniqlab olishga ulgurishi kerak. Aks holda o'quvchilar mustaqil o'qish uchun berilgan topshiriqlarni mukammal bajarishmaydi.

O'qituvchi hadislar asosidagi mustaqil o'qish darsini o'tishda turli samara beradigan metodlardan foydalansa mustaqil o'qish mashg'ulotining mazmunli

bo'lishi ta'minlanadi. Mustaqil o'qish uchun tavsiya qilinayotgan hadislarni o'rganishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda xotirasini hisobga olmoq juda muhimdir.

O'quvchilarning xarakterlari psixologiya fanida ta'kidlanganidek, melanxolik, sangvinik, flegmatik va xolerik tiplarga ega. Xarakterning bunday tiplarga bo'linishi o'quvchilarning har qanday mavzuni anglab olishlari bir tekisda bo'lmasligini ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarning hadislarni o'zlashtirishlariga ham bir xil talab qo'yib bo'lmasligini anglatadi.

O'quvchilarning ko'pchiligi o'qituvchining hadisalar asosidagi yangi mavzuni tushuntirishlaridan so'ng mavzuni mustaqil o'qib chiqishga ehtiyoj sezadi. Darsning mustahkamlash qismida o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan savollarga to'liq va aniq javob bergan o'quvchilarga ham mavzu asosida mustaqil bajarishlari uchun vazifalar berish zarur. Bunda kuzatishlar, ijodiy ishlar, taassurot yozish, insho yozish, savollarga yozma javob berish, test topshiriqlarini bajarish bo'yicha ishlar beriladi.

Bunday topshiriqlarning amalga oshirilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, shuningdek, ularda ijobiy sifatlarning shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Хасанов А.А. Современная теория обучения на межпредметной основе // Science and world. – Volgograd, 2016. -№8 (36), vol II. – С. 76-78
2. Хасанов А.А. Дидактический анализ проблемы межпредметных связей и возможности их использования в средне-специальных учебных заведениях // Молодой учёный // ежемесячный научный журнал № 1 (36)/2012 Том II 129-130с. ISSN 2072-0297 Чита-2012 г.
3. Хасанов А.А. Ўқитиш жараёнида фанлараро алоқадриликни амалга оширишнинг психологик-педагогик асослари // Замонавий таълим // илмий-амалий оммабоп журнал. Тошкент-2017, №10, 9-14 бетлар
4. Хасанов А.А. Маматкаримов К.З. Межпредметные связи как дидактические условия повышение эффективности учебного процесса // Молодой учёный // ежемесячный научный журнал № 20 (124)/ октябрь-2, 2016 г.
5. Ж. М. Таштемиров, А. Т. Хайдаров Влияние источника тепла на плотность окружающей среды в нелинейных процессах тепловыделения в двухмерных

областях (pp. 295-299) scientific Progress Volume 4 I Issue 2 I 2023 _ISSN: 2181-1601.

6. Khaidarov A. T, Toshtemirov J. M. Heat source density in non-linear heat dissipation processes // Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 10.–С. 72-80.

7. Khaidarov A. T., Toshtemirov J. M. Modeling of the dependence of the conductivity of the non-electric medium of iron metal //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 88-89.

8. J.M. Toshtemirov, M.A. Asadullayeva The effect of the heat source on the ambient density in the processes of non-linear heat propagation in multidimensional fields.